

“MUSOFIR SHOU” loyihasining

QOIDALARI

(ommaviy oferta)

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur qoidalar **“Level Up Solutions”** MChJ va **“BIZ-TV”** MChJ hamkorlikda tashkil etilgan **“MUSOFIR SHOU”** loyihasining (keyingi matnda – **Loyiha**) tartib-taomili va shartlarini belgilaydi.

1.2. Ushbu Qoidalar shartnomaning barcha muhim shartlarini o‘z ichiga oladi va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi hamda mazkur Loyihada qatnashuvchilar (keyingi matnda – **Ishtirokchi**) uchun majburiy hisoblanadi.

1.3. Ishtirokchining ushbu Qoidalarining 3.1-bandida ko‘rsatilgan barcha shartlarni bir vaqtning o‘zida bajarishi Loyihada ishtirok etishga rozilik bildirganini va ushbu Qoidalarda belgilangan barcha shartlarni so‘zsiz qabul qilishini bildiradi.

1.4. Ushbu Loyiha chet eldagi **“BIZ Media”** platformasi tomoshabinlarining e‘tiborini Tashkilotchilarning qo‘shimcha xizmatlariga jalb qilish, shou tashkil qilib ijtimoiy tarmoqlarda efirga uzatish orqali **“BIZ Media”** platformasida aynan chet eldagilar uchun pullik obunalar sotuvini oshirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi tadbir hisoblanadi.

1.5. Loyiha tashkilotchilari:

“Level Up Solutions” MChJ. Yuridik manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Afrosiyob ko‘chasi, 12A-uy (STIR 302796163 info@levelup.uz)

“BIZ-TV” MChJ muassisligidagi **“BIZ Media”** platformasi. Yuridik manzili: Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik ko‘chasi 59-uy. (STIR 309186126)

1.6. Texnik hamkor – **“Level Up Solutions”** MChJ. Yuridik manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Afrosiyob ko‘chasi, 12A-uy (STIR 302796163 info@levelup.uz).

1.7. Loyiha g‘olibi O‘zbekiston Respublikasining 18 (o‘n sakkiz) yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda muomalaga layoqatli deb topilgan jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin, Loyiha Tashkilotchisi xodimlari (Tashkilotchi bilan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik- huquqiy shartnoma tuzgan shaxslar) bundan mustasno.

1.8. Ushbu Loyiha lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan o‘yin emas hamda Loyiha ishtirokchilari Loyihada ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy tavakkalchiliklarga ega emaslar. Loyiyaning mukofot jamg‘armasi Tashkilotchi va homiyilar mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.

1.9. Loyiha muddati:

Boshlanish sanasi 2025-yil 25-avgust (soat 00:00 dan).

2. Loyihaning mukofot jamg'armasi

2.1. Loyihaning mukofot jamg'armasi Loyiha tashkilotchisi va homiylar mablag'lari hisobidan shakllantiriladi va faqat Loyiha g'oliblariga Sovrinlarni topshirish uchun foydalaniladi.

2.2. Bir shou soni uchun qo'yiladigan sovg'alar ro'yxati quyidagi sovrinlardan tashkil topgan:

Sovg'a nomi (Kategoriya)	Soni (dona)
<i>Zinama-zina bosqichidagi sovg'alar</i>	
Smartfon (Смартфон)	4
Noutbuk (Ноутбук)	4
Televizor 43 (Телевизор 43)	4
Kir yuvish mashinasi (Стиральная машина)	4
Gaz plitasi (Газовая плита)	4
Havo sovutgich (Кондиционер)	4
Muzlatkich (Холодильник)	3
10 000 000 so'm (10 000 000 сум)	2
10 gramm tilla (10 грамм золота)	1
<i>Super o'yinda o'ynaladigan sovg'alar</i>	
1 000 000 so'm (1 000 000 сум)	4
Kichik to'plam (Muzlatkich, Kir yuvish mashinasi, Televizor 43)	3
Katta to'plam (Muzlatkich, Havo sovutgich, Gaz plitasi, Kir yuvish mashinasi, Televizor 43)	2
AVTOMOBIL (Cobalt)	1

2.3. Soliq to'lovchi hisoblangan jismoniy shaxs — g'olib tomonidan yutib olingan yutuq(sovrinlar) bilan bog'liq barcha soliqlar g'olib tomonidan mustaqil ravishda to'lanadi.

2.4. Tashkilotchi Sovrinlar ro'yxatini o'zgartirish yoki kengaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3. Loyihada qatnashish shartlari

3.1. Loyiha ishtirokchisi bo'lishni istagan har bir shaxs ushbu ofertada belgilangan barcha shartlarni bajarishi va ularga rioya qilishi shart.

3.1.1. Ishtirokchi Telegram messenjeridagi (Telegram Messenger, Inc.) **@musofir_shou_bot** boti orqali ro'yxatdan o'tadi. Botda taqdim etilgan havola orqali **"BIZ Media"** platformasiga o'tib obuna xarid qilinadi. Obuna sotib olingandan so'ng, foydalanuvchiga maxsus **"Shou ID"** biriktiriladi va u **@musofir_shou_bot** ga kiritiladi.

3.1.2. Maxsus **"Shou ID"** bosh va kichik harflardan iborat bo'ladi. Har bir ishtirokchiga faqat **bitta "Shou ID"** beriladi va u boshqa shaxsga berilishi yoki topshirilishi mumkin emas.

3.1.3. Maxsus “**MUSOFIR SHOU**” obunasi **uch (3) xil tarifda** taqdim etiladi: 1 oylik, 3 oylik va 6 oylik. Obuna tariflari va ularning narxlarini Tashkilotchi tomonidan belgilanadi va “**BIZ Media**” platformasida hamda telegram botda e’lon qilinadi.

3.1.4. @musofir_shou_bot telegram botida maxsus **ball to’plash tizimi** mavjud. Ishtirokchilar belgilangan shartlarni bajargan holda ball to’plash imkoniyatiga ega bo’ladilar. Ball berish tartibi va miqdorlari quyidagicha:

100 ball — 6 oylik obuna sotib olinib, “Shou ID” botga kiritilganda;

40 ball — 3 oylik obuna sotib olinib, “Shou ID” botga kiritilganda;

10 ball — 1 oylik obuna sotib olinib, “Shou ID” botga kiritilganda;

10 ball — telegram botda to’liq ro’yxatdan o’tgan foydalanuvchiga taqdim etiladi va obuna faollashtirilgandan so’ng kuchga kiradi;

2 ball — referal havola orqali taklif qilingan do’st barcha shartlarni bajargan taqdirda.

3.1.5. O’zbekiston hududida bo’lgan ishtirokchilar ballarni telegram botdagi **referal tizim** orqali to’plashlari mumkin. Referal havola orqali botga kirgan shaxs “**BIZ Media**” platformasidan obuna sotib olib, “Shou ID”ni botga kiritgan taqdirda:

- obunani faollashtirgan ishtirokchiga tarifga mos ravishda **10, 40 yoki 100 ball**;

- taklif qilgan ishtirokchiga **2 ball** taqdim etiladi.

Agar referal havola orqali botga kirilgan bo’lsa-yu, lekin obuna sotib olinmasa, ball taqdim etilmaydi.

O’zbekiston hududida bo’lgan ishtirokchilar ball to’plab “Suyunchi” sovg’asiga ega bo’lish imkoniyatini qo’lga kiritishadi. Suyunchi sovg’a qimmatbaho texnika yoki pul mukofoti bo’lishi mumkin.

3.1.6. Ishtirokchi tomonidan to’plangan ballar miqdori qancha ko’p bo’lsa, shou doirasida **qimmatbaho sovrinlarni yutib olish imkoniyati shuncha yuqori bo’ladi.**

4. Obuna va to’lov tartibi

4.1. Obuna Ishtirokchiga to’langan muddat davomida Telegram-bot funksionalidan va raqamli kontentdan foydalanish huquqini beradi.

4.2. “BIZ Media” platformasi orqali obuna uchun to’lovni amalga oshirish tartibi

4.2.1. Ishtirokchi “**BIZ Media**” platformasiga o’tib, “**MUSOFIR SHOU**” obuna tariflaridan birini tanlaydi va elektron to’lov vositalari orqali to’lovni amalga oshiradi.

4.2.2. To’lov muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so’ng, Ishtirokchiga noyob identifikator — “**Shou ID**” taqdim etiladi. Ushbu “**Shou ID**” obunani faollashtirish uchun **@musofir_shou_bot** Telegram-botiga kiritilishi shart.

4.3. Obuna tariflari va narxlarini

4.3.1. Quyidagi obuna tariflari amal qiladi (rublda):

- 1 oylik obuna — 1000 (bir ming) rubl;
- 3 oylik obuna — 2500 (ikki ming besh yuz) rubl;
- 6 oylik obuna — 4500 (to‘rt ming besh yuz) rubl.

VISA / Mastercard to‘lov tizimlari orqali to‘lov amalga oshirilganda, summalar quyidagicha belgilanadi:

- 1 oylik obuna — 155 000 (bir yuz ellik besh ming) so‘m;
- 3 oylik obuna — 385 000 (uch yuz sakson besh ming) so‘m;
- 6 oylik obuna — 690 000 (olti yuz to‘qson ming) so‘m.

4.4. Xizmat ko‘rsatilgan deb hisoblanadigan vaqt

4.4.1. Telegram-bot funksionaliga va raqamli kontentga kirish huquqi taqdim etilgan (obuna faollashtirilgan) paytdan boshlab xizmat to‘liq hajmda ko‘rsatilgan deb hisoblanadi.

4.4.2. Obuna elektron shaklda ko‘rsatiladigan va raqamli kontent taqdim etishni nazarda tutuvchi xizmat hisoblanadi.

4.5. Obunani avtomatik uzaytirish

4.5.1. Obuna muddati tugaganidan so‘ng, Telegram tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va Ishtirokchi tomonidan oldindan rozilik bildirilgan taqdirda, avtomatik uzaytirish funksiyasi qo‘llanilishi mumkin.

4.5.2. Ishtirokchi istalgan vaqtda Telegram-bot interfeysi yoki Telegram tomonidan taqdim etilgan vositalar orqali avtomatik uzaytirishni o‘chirish huquqiga ega.

4.6. Pul mablag‘larini qaytarish tartibi

4.6.1. Raqamli kontentga kirish huquqi berilib, xizmat ko‘rsatish boshlanganidan so‘ng, to‘langan pul mablag‘lari qaytarilmaydi.

4.6.2. Pul mablag‘larini qaytarish faqat quyidagi hollarda mumkin:
Ijrochining aybi bilan xizmatga kirish texnik jihatdan imkonsiz bo‘lgan taqdirda;
pul mablag‘lari xato tarzda yechib olingan bo‘lsa;
amaldagi qonunchiligida bevosita nazarda tutilgan boshqa hollarda.

4.7. To‘lovlar bo‘yicha javobgarlik


4.7.1. To‘lovlarni amalga oshirish, texnik nosozliklar, operatsiyalarni bekor qilish yoki tasdiqlash bilan bog‘liq barcha masalalar tegishli to‘lov provayderi va Telegram qoidalariga muvofiq tartibga solinadi.

5. Shou uchun ishtirokchilarni aniqlash tartibi:

5.1. Agar Qoidalarining 3-bo‘limi shartlari bajarilgan bo‘lsa @musofir_shou_bot telegram boti orqali:

- Referral tizimi(do‘stlarni taklif qilish) orqali botda ball to‘plaganlar va botdagi **“Shaxsiy Kabinet”** menyusida ko‘rsatilgan **“☐ Shouda suyunchi sovg‘asini yutib olish imkoniyati: ✓aktiv”**(1-rasm) statusida bo‘lgan ishtirokchilar **“MUSOFIR SHOU”**da qimmatbaho texnikalar yutib olish imkoniyatini qo‘lga kiritishadi.

- Obuna sotib olib so‘ng maxsus **“Shou ID”**ni botga kiritib ball to‘plaganlar va botdagi **“Shaxsiy Kabinet”** menyusida ko‘rsatilgan **“☐ Shouda ishtirokchi bo‘lish imkoniyati: ✓aktiv”**(1-rasm) statusida bo‘lgan ishtirokchilar **“MUSOFIR SHOU”** shousida(keyingi o‘rinlarda - **Shou**) g‘olib ishtirokchi bo‘lish va shouda qatnashish imkoniyatini qo‘lga kiritishadi.



5.2. Ishtirokchilar kiritgan maxsus “**Shou ID**”larning umumiy miqdori va Qoidalarining 3.1.4-bandida belgilangan miqdorda to‘plangan ballar haqidagi ma’lumot **@musofir_shou_bot** telegram boti orqali olinadi.

5.3. Ishtirokchilar **@musofir_shou_bot** telegram boti orqali ro‘yxatdan o‘tgan telefon raqamlari va ular kiritgan “**Shou ID**”lar orasidan randomayzer yordamida (kompyuterda Random dasturi orqali) g‘olib ishtirokchi tasodifiy tanlab olinadi. (Shou ishtirokchisi va Suyunchi sovg‘asi g‘olibi).

5.4. Ishtirokchi o‘z telefon raqami va “**Shou ID**”sini sovrinlar o‘yinidagi ishtirokini kuzatishi mumkin. Shou Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalaridan birida efirga namoyish etiladi. Telefon raqami va “**Shou ID**”si randomayzer orqali tanlangan ishtirokchi g‘olib ishtirokchi hisoblanadi. Shuningdek shouning keyingi soni uchun g‘olib ishtirokchi sifatida tanlanadi.

5.5. Shou vaqtida mavjud bo‘lgan barcha ishtirokchining telefon raqamlari va “**Shou ID**”lari har bir o‘yinda ishtirok etadi, oldingi shoulardan birining g‘olib bo‘lgan telefon raqami va “**Shou ID**”si bundan mustasno.

5.6. Shou g‘olib ishtirokchilari (keyingi o‘rinlarda “G‘olib” deb yuritiladi) shou vaqtida e‘lon qilinadi. Shuningdek, tashkilotchi g‘olibga qo‘ng‘iroq qiladi va shou ishtirokchisi bo‘lganligi haqida xabar beradi, shu bilan birga **@musofir_shou_bot** telegram boti orqali push-bildirishnoma yuboradi va g‘oliblarning ismlarini ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasiga joylashtiradi.

Tashkilotchi g‘olibga **+998-88-785-17-97** raqami orqali qo‘ng‘iroq qilib, g‘olib bo‘lganligi va shou qatnashishligi haqida ma’lumot beradi va telefon orqali muloqotni efirda namoyish qiladi.

5.7. Mazkur qoidalarining 4.6-bandiga asosan Tashkilotchi tomonidan jonli efir paytida g‘olibga qo‘ng‘iroq qilganda javob bermasa (yoki telefon raqamiga bog‘lanish imkoni bo‘lmasa) va u 24 soat mobaynida qayta aloqaga chiqmagan taqdirda shou ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi va boshqa ishtirokchi tanlash zarur bo‘ladi.

5.8. Loyiha shartlariga rioya qilmagan taqdirda Tashkilotchi Shou g‘olibining sovrinini bekor qilish huquqiga ega.

6. Shou haqida

6.1. Tashkilotchilar tomonidan loyiha uchun “**MUSOFIR SHOU**” nomi ostida maxsus ko‘ngilochar kapital shou tashkillashtiriladi. Unda G‘olib ishtirokchilar va shouni olib boruvchi boshlovchi shouni o‘tkazadi.

6.2. Shouda qo‘yiladigan sovrinlar ro‘yxati 2.2-bandda keltirilgan ko‘rinishda va qiymatda bo‘ladi. Shou uchun maxsus tanlangan g‘olib ishtirokchilar shoudagi o‘yin shartlariga muvofiq tarzda qatnashib o‘z sovg‘alar yutib olishlari mumkin bo‘ladi.

6.3. Shou uchun tanlangan g‘olib ishtirokchi bilan bilvosita O‘zbekistondan turib aloqaga chiqiladi va videokonferensiya orqali studiya bilan aloqa o‘rnatiladi.

6.4. Shouga ishtirokchi oila a‘zolari, yaqinlarini taklif etiladi va chet elda bo‘lgan g‘olib ishtirokchi bilan studia videokonferensiya orqali bog‘laniladi.

6.5. Boshlovchi boshligida shou olib boriladi, shou o‘yin sharti bo‘yicha g‘olib ishtirokchi va oila a‘zolari sovrinlar yutib olishlari mumkin.

6.6. Har bir shoudagi g‘olib ishtirokchiga o‘yin natijasi qanday tugashidan qat’iy nazar **5 000 000 so‘m** qiymatda bonus puli beriladi.

6.7. Shoudagi maxsus o‘yin mexanikasi quyidagicha:

Ikki bosqichli o'yin

1-bosqich: Zinama-zina bosqichi

O'yin sharti:

Ortida sovg'a yashirilgan 30ta yacheyka bo'ladi.

Sovg'alar ro'yxatidagi barcha sovg'alar yacheykalar ortiga yashirilgan bo'ladi.

Monitorga sovg'alar ro'yxatini chiqarib qo'yiladi.

Ishtirokchi monitorda ko'rinib turgan sovg'alar ro'yxatidan bir sovg'ani tanlaydi. O'sha o'zi tanlagan sovg'ani endi 30ta yacheykani orasidan topishi kerak bo'ladi.

5 marta monitordan sovg'a tanlash uchun imkoniyat beriladi. Hammasida biror sovg'ani tanlab keyin o'sha sovg'ani yopiq yacheykalar orasidan topishi kerak bo'ladi.

1-imkoniyatidan foydalanayotganida 5ta yacheykani ochishi mumkin bo'ladi.

Agar mana shu 5ta yacheykani orasida o'zi tanlagan sovg'a bo'lsa o'sha sovg'ani yutib oladi. Qolgan 4ta sovg'a o'yindan chiqib ketadi. Topilgan va o'yindan chiqib ketgan sovg'alar monitordagi sovg'alar ro'yxatidan ham o'chiriladi.

Agar mana shu 5ta yacheykani orasida o'zi tanlagan sovg'a yo'q bo'lsa, tanlagan sovg'asi bilan birga 6ta sovg'a o'yindan chiqib ketadi. O'yindan chiqib ketgan sovg'alar monitordagi sovg'alar ro'yxatidan ham o'chiriladi.

2-imkoniyatidan foydalanayotganida 4ta yacheykani ochishi mumkin bo'ladi.

Agar mana shu 4ta yacheykani orasida o'zi tanlagan sovg'a bo'lsa o'sha sovg'ani yutib oladi. Qolgan 3ta sovg'a o'yindan chiqib ketadi. Topilgan va o'yindan chiqib ketgan sovg'alar monitordagi sovg'alar ro'yxatidan ham o'chiriladi.

Agar mana shu 4ta yacheykani orasida o'zi tanlagan sovg'a yo'q bo'lsa, tanlagan sovg'asi bilan birga 5ta sovg'a o'yindan chiqib ketadi. O'yindan chiqib ketgan sovg'alar monitordagi sovg'alar ro'yxatidan ham o'chiriladi.

3-imkoniyatidan foydalanayotganida 3ta yacheykani ochishi mumkin bo'ladi.

Agar mana shu 3ta yacheykani orasida o'zi tanlagan sovg'a bo'lsa o'sha sovg'ani yutib oladi. Qolgan 2ta sovg'a o'yindan chiqib ketadi. Topilgan va o'yindan chiqib ketgan sovg'alar monitordagi sovg'alar ro'yxatidan ham o'chiriladi.

Agar mana shu 3ta yacheykani orasida o'zi tanlagan sovg'a yo'q bo'lsa, tanlagan sovg'asi bilan birga 4ta sovg'a o'yindan chiqib ketadi. O'yindan chiqib ketgan sovg'alar monitordagi sovg'alar ro'yxatidan ham o'chiriladi.

4-imkoniyatidan foydalanayotganida 2ta yacheykani ochishi mumkin bo'ladi.

Agar mana shu 2ta yacheykani orasida o'zi tanlagan sovg'a bo'lsa o'sha sovg'ani yutib oladi. Qolgan 1ta sovg'a o'yindan chiqib ketadi. Topilgan va o'yindan chiqib ketgan sovg'alar monitordagi sovg'alar ro'yxatidan ham o'chiriladi.

Agar mana shu 2ta yacheykani orasida o'zi tanlagan sovg'a yo'q bo'lsa, tanlagan sovg'asi bilan birga 3ta sovg'a o'yindan chiqib ketadi. O'yindan chiqib ketgan sovg'alar monitordagi sovg'alar ro'yxatidan ham o'chiriladi.

5-marta tanlayotganida 1ta karta ochadi.

Agar mana shu yacheykani orqasida o'zi tanlagan sovg'a bo'lsa o'sha sovg'ani yutib oladi. Topilgan sovg'a monitordagi sovg'alar ro'yxatidan ham o'chiriladi.

Agar mana shu yacheykani orqasida o'zi tanlagan sovg'a yo'q bo'lsa, tanlagan sovg'asi bilan birga 2ta sovg'a o'yindan chiqib ketadi. O'yindan chiqib ketgan sovg'alar monitordagi sovg'alar ro'yxatidan ham o'chiriladi.

Har bir yutilgan sovg'asi to'planib boradi ya'ni hamma imkoniyatidan unumli foydalanib sovg'a yutgan ishtirokchi maksimum 5ta sovg'a yutishi mumkin. Yutgan sovg'alarini hammasi ishtirokchiga tegishli.

Shu yerda ishtirokchiga taklif beriladi: 2-bosqichga o'tish yoki o'tmaslik tanlovini.

2-bosqichga o'tib o'ynash uchun 1-bosqichda yutib olgan sovrinlaridan voz kechish kerak bo'ladi. Agar ishtirokchi 2-bosqichga o'tishni xohlamasa 1-bosqichda yutgan sovg'asi bilan uyiga qaytadi, o'yin tugatiladi. Ishtirokchi 2-bosqichga o'tib yo kichkina sovg'a bilan ketadi yo mashina yutib ketadi.

2-bosqichga o'tish sharti:

Ishtirokchi 1-bosqichda kamida 1ta sovg'ani topgan bo'lishi kerak.

Ishtirokchi 1-bosqichda nechta imkoniyatdan to'g'ri foydalangan bo'lsa shuncha imkoniyat beriladi 2-bosqichda. Bu degani maksimum 5ta imkoniyat, minimum 1ta imkoniyat.

Misol uchun: ishtirokchi 1-bosqichda 2ta imkoniyatidan to'g'ri foydalanib 2ta sovg'ani topgan edi, u 2-bosqichga o'tishga rozi bo'ldi, shunda unga 2-bosqichda 2ta imkoniyat beriladi.

Holat: ishtirokchi 1-bosqichda 3ta imkoniyatidan to'g'ri foydalanib 4ta sovg'ani topgan edi, u 2-bosqichga o'tishga rozi bo'ldi, shunda unga 2-bosqichda 3ta imkoniyat beriladi .

2-bosqich: Super o'yin

O'yin sharti:.

Ortida sovg'a yashirilgan 10ta yacheyka bo'ladi.

Monitorida sovg'alar ro'yxati chiqarib qo'yilgan bo'ladi.

Ishtirokchi nechta imkoniyati bo'lsa shuncha yacheykani ochishi mumkin, masalan 3 ta imkoniyati bo'lsa 3ta yacheykani ochishi mumkin.

Ishtirokchi yacheykalarni tanlaydi va yacheykalar ochiladi. Ochilgan yacheyka ortidagi sovg'ani ishtirokchi yutib oladi.

O'yin tugaydi.

7. Boshqa shartlar

7.1. Tashkilotchi sovrinlarni o'yin o'tkazilgan kundan boshlab uch oy ichida topshiradi. Sovrinni olish uchun G'olib Tashkilotchining manziliga shaxsan kelishi va quyidagilarni taqdim etishi kerak:

- shaxsini tasdiqlovchi amaldagi hujjat;

- **@musofir_shou_bot** telegram botida ro'yxatdan o'tgan telefon raqami va "Shou ID"si G'olibga tegishli ekanligini tasdiqlash.

7.2. Tashkilotchi belgilagan sovrin jamg'armasidagi sovrin nomlari ko'rsatilgandan farqsiz, uning modellari farqli bo'lishi mumkin.

7.3. Tashkilotchi istalgan vaqtda Ishtirokchini oldindan shaxsan ogohlantirmasdan ushbu Qoidalariga so'zsiz o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish yoki tegishli ma'lumotlarni veb-sayt yoki ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarga joylashtirish orqali Loyihani tugatish/to'xtatib turish/bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.4. Loyihada ishtirok etish bilan Ishtirokchining Tashkilotchi tomonidan ijtimoiy sahifalarida joylashtirilgan Qoidalarini to'liq va so'zsiz qabul qilishini bildiradi, shuningdek, Ishtirokchi bilan turli xil aloqa vositalaridan foydalangan holda bevosita aloqa o'rnatish, shu jumladan (cheklovsiz) pochta jo'natmalari, Ishtirokchining elektron pochta manziliga, mobil telefoniga (SMS-xabarnoma) tegishli ma'lumotlarni, push-bildirishnomalarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi mazmunining reklama tushunchasiga mos keladigan ma'lumotlarni yuborish orqali Tashkilotchi tomonidan o'tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlar hamda o'yinlarda ishtirok etish, shu jumladan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazish, marketing va/yoki statistik va/yoki boshqa tadqiqotlar o'tkazish, tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni targ'ib qilish maqsadida, shu bilan birga Ishtirokchini yangi xizmatlar, maxsus takliflar va reklama Loyihalar, Tashkilotchi tomonidan taqdim etilayotgan chegirmalar va bonuslar tizimlari, Tashkilotchi va uchinchi shaxslar tomonidan birgalikda taqdim etiladigan xizmatlari, mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) haqida ma'lumot berish maqsadida, shu jumladan Tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, xususan, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish maqsadida Ishtirokchining Ilovada ro'yxatdan o'tish vaqtida taqdim etgan shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga bergan roziligini bildiradi.

7.5. Loyihada ishtirok etish orqali Ishtirokchi o'z xohishi bilan, o'z manfaatlarini ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq Tashkilotchiga o'z ma'lumotlarini (O'zbekiston Respublikasi shaxsiy ma'lumotlarning maxfiylikini va ularni qayta ishlash jarayonida shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi qonunchiligi talablariga rioya qilgan holda) ular tomonidan qayta ishlashga (to'plash, qayd etish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, tasdiqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish, tarqatish, taqdim etish, tashkilotchi va uning kontragentlari tomonidan Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini uzatish (shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududiga o'tkazish), anonimlashtirish, blokirovka qilish va yo'q qilish, shu jumladan avtomatlashtirish va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari, boshqa dasturiy vositalardan foydalanish, shuningdek ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini qo'lda, avtomatlashtirilgan va aralash, ham tashkilotchi va uning kontragentlarining ichki tarmog'i, shuningdek Internet orqali, shuningdek ularsiz qayta ishlash. Amaldagi qayta ishlash usullariga quyidagilar, shu jumladan (cheklovlarsiz), ma'lumotlar bazasini zarur mezonlar bo'yicha segmentatsiyalash kiradi.

7.6. Ushbu rozilik Ishtirokchi tomonidan Ishtirokchiga tegishli har qanday ma'lumotlarga, shu jumladan quyidagi maqsadlarga erishish uchun Ishtirokchining zarur yoki kerakli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlariga nisbatan har qanday harakatlarni amalga oshirish uchun beriladi: familiyasi, ismi, otasining ismi; jinsi; tug'ilgan yili, oyi, sanasi (va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda-shaxsni tasdiqlovchi

hujjatning rekvizitlari (pasport raqami, berilgan sana, berilgan organ nomi, shuningdek ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotlar), soliq to'lovchining shaxsiy raqami, mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili va bank karta raqami hamda Sovrinni olish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

7.7. Ishtirokchining shaxsga doir ma'lumotlarini ushbu qoidalarga muvofiq qayta ishlashga jalb qilingan uchinchi shaxslarni tanlash huquqi Tashkilotchiga taqdim etiladi va qo'shimcha muvofiqlashtirishni talab qilmaydi. Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

7.8. Loyihada ishtirok etish orqali Loyiha g'olibi deb topilgan ishtirokchi, shuningdek, o'z ismi, familiyasi, otasining ismi va o'z rasmlarini (fotosuratlar va videolarini) Tashkilotchining quyidagi manzillar bo'yicha rasmiy tarmoqlariga joylashtirishga rozilik beradi

<https://musofir.asia/>

https://t.me/musofir_shou

https://instagram.com/musofir_shou

https://facebook.com/musofir_shou

https://youtube.com/@Musofir_shou

shuningdek, bosma nashrlarda, radio va televizion dasturlarda, Internet ommaviy axborot vositalarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan (cheklovlersiz) Instagram, V Kontakte, Facebook, Telegram tarmoqlarida ham.

7.9. Ushbu Qoidalar buzilgan taqdirda, Tashkilotchi Loyiha ishtirokchisini Loyihada ishtirok etishdan so'zsiz chetlashtirishga haqli. Shu bilan birga, Tashkilotchi ko'rsatilgan Ishtirokchiga (-larga) nisbatan o'z harakatlariga izoh bermaslik huquqiga ega.

7.10. Loyiha Ishtirokchisi o'zi haqida noto'g'ri va/yoki ishonchsiz ma'lumotlarni ko'rsatishi sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy oqibatlar xavfini to'liq o'z zimmasiga oladi.

7.11. Ushbu rag'batlantiruvchi tadbirga muvofiq Loyiha g'olibini aniqlash natijasi yakuniy sanaladi va unga e'tiroz bildirish mumkin emas.

7.12. Loyiha ishtirokchisi istalgan vaqtda Loyiha Tashkilotchisiga murojaat qilib, Loyihada ishtirok etishni rad etishga haqli.

7.13. Tashkilotchi Loyiha ishtirokchisi yoki uchinchi shaxs tomonidan Loyiha yoki Sovrinni olish bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan barcha va har qanday chiqim va xarajatlarni qoplamaydi.

7.14. Tashkilotchi telekommunikatsiya va energetika tarmoqlaridagi nosozliklar, zararli dasturlarning xatti-harakatlari, shuningdek uchinchi shaxslarning dasturiy ta'minotga ruxsatsiz kirish va/yoki Tashkilotchining apparat kompleksini o'chirishga qaratilgan insofsiz harakatlari tufayli majburiyatlarining bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi uchun javobgar emas.

7.15. Tashkilotchi, agar biron-bir sababga ko'ra, kompyuter viruslari, nuqsonlar, manipulyasiyalar, ruxsatsiz aralashuvlar, qalbakilashtirishlar, texnik nosozliklar yoki Tashkilotchi tomonidan nazorat qilinmaydigan Loyihaning bajarilishi, xavfsizligi, halolligi, yaxlitligiga ta'sir qiladigan har qanday sabablarga ko'ra Loyihalarni yoki uning biron bir qismini rejalashtirilganidek amalga oshirish mumkin bo'lmasa, Loyihani bir tomonlama to'xtatish yoki to'xtatib turish yoki uning alohida ishtirokchilarini chetlashtirish huquqiga ega.

7.16. Fuqarolar Loyiha haqida dushanbadan jumagacha soat 10:00 dan 18:00 gacha ishlovchi axborot aloqa liniyasi: **+998-88-785-17-97** telefon raqamiga qo'ng'iroq qilib ma'lumot olishlari mumkin.

7.17. Tashkilotchi istalgan vaqtda Ishtirokchini oldindan shaxsan ogohlantirmasdan, tegishli ma'lumotlarni veb-sayt, mobil ilova yoki Internetga joylashtirish orqali ushbu Qoidalarga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish hamda Loyihani to'xtatish / to'xtatib turish /bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.